

## Jizzax viloyatida oliy toifali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan extiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta’limolish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar soni viloyat bo‘yicha 4 kishini tashkil qildi. 3 nafar katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar qabul qilindi hamda 3 nafari bitirishdi.

### 2019-yilda katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar institutlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutlari (doktorantura) mavjud tashkilotlar soni	Qabul qilingan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar	Ular-dan, ayollar	2020- yil 1- yanvar holatiga katta ilmiy xodim-izlanuvchilar soni	Ular-dan, ayollar	Bitir-gan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar	Ular-dan, ayollar	Jami bitiruvchilar sonidan disser-tatsiya himoya qilganlar
2	3	1	14	4	3	1	1

2019-yilda fan sohalari bo‘yicha tashkilotlar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi texnika (8,6 %) va qishloq xo‘jaligi (83,4 %) fanlariga qilingan xarajatlar tashkil etdi.


**2019-yilda fan sohalari bo‘yicha tashkilotlar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlar, mln. so‘m**



Fan sohalari bo‘yicha tashkilotlar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlarining eng yuqori ulushi, ya’ni 90,5 foizi qishloq xo‘jaligi fanlari xissasiga to‘g‘ri kelgan. 4,4 foizi gumanitar fanlar, 3,9 foizi tibbiyot fanalari xissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlarni katta qismi budjet (99,7 %) mablag‘lariga to‘g‘ri keldi.

## Ilmiy daraja va ta'lim darajasi ega xodimlar soni



Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni bajargan ilmiy daraja va ta'lim darajasi ega xodimlar soni yildan yilga ko'payishini inobatga oladigan bo'lsak, xozirgi kunda bakalavr 554 ta, magist 97 ta, fan nomzodi 215 ta, fan doktori 34 ta va falsafa doktori 5 tani tashkil etadi.

## 2019-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar

Jami  
182

101 tadqiqotchi mutaxassislar

42 texniklar

21 yordamchi xodimlar

18 boshqalar


2019-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar jami 182 tani tashkil etgan bo‘lib, shundan 101 tasi (jamiga nisbatan 55,5 %) tadqiqotchi mutaxassislar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga 42 tasi (23,1 %) texniklar, 21 tasi (11,5 %) yordamchi xodimlar, 18 tasi (9,9 %) boshqa tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajargan.



Pedagoglar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni bajarish uchun sarflangan ish vaqt (kishi-soat) 209 soatni tashkil etgan.

2019-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarni  
bajargan ilmiy xodimlarning jamiga nisbatan ulushi, foizda

- ◆ Tadqiqotchi mutaxassislar
- ◆ Texniklar
- ◆ Yordamchi xodimlar
- ◆ Boshqalar



Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

72-221-51-36

72-222-81-36